



SURXONDARYO TURIZIMI.

Davronova Asila Yusuf qizi¹

¹Termiz davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti talabasi
+998992621908

Boboyorova Hayitoy Uchqun qizi²

²Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi
hayitoyboboyorova2311@gmail.com
+998997439603

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7146471>

ARTICLE INFO

Received: 30th September 2022

Accepted: 03rd October 2022

Online: 05th October 2022

KEY WORDS

Changqo'biz, changqovuz, oktava, Teshiktosh g'ori, Termiz arxeologiya muzeyi, Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohi.

Changqo'biz, changqovuz — tilchali cholg'u asbobi. Plastinkasimon va yoysimon turlari bor. Suyak, yog'och, qamish, g'arav, metallardan yasaladi. Osiyo (Sibir, Uzoq Sharq, O'rta Osiyo), Afrika va Yevropa xalqlarida turli nomda tarqalgan bo'lib, musiqiy folklor qatlamiga mansub cholg'udir. Chanqovuz tishlarga yaqin ushlab yoki bosib turib, tilchasi (turiga qarab) unga bog'langan ip yordamida tortib yoki qo'l barmoklari (odatda, ko'rsatgich barmoq) bilan tirnab chalinadi. Undan ma'lum balandlikdagi doimiy bir ovoz va shu ovoz obertonlaridan og'iz artikulyatsiyasi yordamida muayyan ohanglar chiqariladi. Ovozning balandpastligi og'iz bo'shlig'ining kattakichik ochilishiga, cholg'u tilchasining uzun va qalinligiga bog'liqdir. Chanqovuz o'ziga xos past ovozi, nisbatan tor (oktava doirasidagi) diapazoni bilan ajralib turadi. O'tmishda o'zbeklarda suyak chanqovuz ("Alpomish" dostoni) va temir chanqovuz turlari bo'lib, asosan, xotinqizlar

ABSTRACT

Ushbu maqolada Surxondaryo vohasining milliy ma'daniyati, tarixi, so'lim tabiati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

tomonidan qo'llanilgan. Hozir O'zbekistonda, asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, shuningdek, Samarqand va Buxoro viloyatlarida temir chanqovuz tarqalgan. 1990-yillardan boshlab ba'zi folkloretnografik jamoalar tomonidan keng ishlatiladigan bo'ldi. Chanqovuz ma'lum Temir changqo'biz. marosim bilan bog'liq bo'lmay, unda oddiy (ba'zida badiha uslubidagi) kichik kuylar ("Chanqovuz kuy" yoki "Chanqovuz chertit") chalinadi. Shuningdek, Chanqovuzda turli hayvonlarning ovozlari o'xshatmalar qilinadi.

Surxondaryo vohasi dunyo sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri sifatida umuminsoniy madaniyat tamadduniga qo'shgan bemisl hissasi bilan mashhur. Surxondaryo viloyati 1941-yil 6-martda tashkil etilgan. Viloyat markazi Termiz shahri. Viloyatning markazi va janubiy qismi tekislik bo'lib, shimoliy Hisor tog' tizmalarining davomi bo'lgan Boysun tog', Ko'hitang tog' va



Bobotog'lar bilan o'ralgan. Keyingi yillarda voha tarixi, yodgorliklariga bo'lgan qiziqish tobora oshib, xorijlik arxeolog olimlar e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Viloyatda arxeologik qazishmalar olib borilmagan yodgorliklar hali ham ko'p.

Zarautsoy rasmlari. Zarautsoy darasidagi toshlarga ishlangan rasmlar ibtidoiy san'atning nodir namunalari. Zarautsoy Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanida joylashgan. 1912-yilda I.Fyodorov tomonidan topilgan. 200 dan ortiq rasmlar mezolit, neolit va keyingi davrlarga mansub. Rasmlar chizma tarzida kontur va soya uslubida qizil angob (oxra) bilan chizilgan. Zarautsoyda odamlarning itlar yordamida yovvoyi buqalarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Hayvonlar (yovvoyi buqa, it, tulki, burama shoxli echki, jayron, tog' echkisi, hasharot), turli buyumlar (o'q-yoy, nayza, o'roqsimon qurollar), niqoblangan odamlar o'ziga xos tarzda hayotiy qilib ishlangan. Zarautsoy ibtidoiy san'atning noyob yodgorligi sifatida yodgorliklarni muhofaza qilish «qizil kitob»iga kiritilgan.

Teshiktosh g'ori. Teshiktosh – O'zbekistondagi arxeologik qo'riqxonadir. Boysun tog' tizmasidagi g'orda joylashgan. G'or Machaydagi Zovtoloshsoy darasida dengiz sathidan 1500-1600 metr balandlikda bo'lib, bo'yi 7, eni 20, uzunligi esa 21 metrni tashkil etadi. G'orning shifti teshik bo'lgani uchun gulxan yoqilsa, tepadagi tuynukdan chiqib ketavergan. G'orda 1,5 m. qalinlikda 5 ta madaniy qatlam bo'lib, har bir qatlamdan bittadan, ba'zilarida ikkitadan diametri 40 santimetr, sathi 2 metrga yetadigan gulxan qoldiqlari topilgan. Shuningdek, Teshiktosh g'oridan arxeolog Okladnikov 8-9 yashar bolaning bosh va skelet suyaklarini topgan. 1949 yili antropolog Gerasimov kalla suyagi asosida

Teshiktosh odamining yuz tuzilishini tiklagan. 1973-yili antropolog Alekseev Teshiktosh odamini to'la o'rganib chiqdi. Uning fikricha, skelet ayol kishiniki bo'lib, inson evolyutsiyasining neandertal fazasiga mansub ekan. Shundan so'ng insoniyat tarixi haqida so'z borganda, albatta, Teshiktosh g'ori tilga olinadigan bo'ldi. Dunyo ahlining Teshiktosh g'origa qiziqishi tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, Machaydaryo qishloqlari bo'ylab dara ichidan tekis yo'l o'tkazilishi g'orga borishga qulaylik yaratadi. Bu yerga ko'plab sayyohlar tashrif buyuradi.

Boysundagi Omonxona bulog'i va g'ori. Boysun – tog'li yurt. Boysun tog'lari bag'rida Omonxona bulog'i joylashgan. Uzoq yillik tarixga ega Omonxona quyuc archazorlar bilan qoplangan. Ushbu manzil geografik muhiti, go'zal manzarasi, bahavoligi bilan inson ruhiyatiga o'zgacha ta'sir etadi. Omonxona buloq suvi tarkibida kremniy kislotasi, temir, alyuminiy va boshqa ko'plab mikroelementlar mavjudligi aniqlangan. Mutaxassislar fikricha, bunday vitamin va minerallarga boy buloq suvi inson tanasini, ayniqsa, jigar, o't pufagi yo'llarini davolash xususiyatiga ega. Ayniqsa, tananing ichki organlarini yuvishda qo'llaniladigan zamonaviy gemodez suyuqligi bilan solishtirilsa, foydali va zararsizligiga ko'ra Omonxona buloq suvi bir necha marta undan ustun turadi. Bu yerda Omonxona g'ori ham mavjud bo'lib, uning balandligi 3,5 metr, umumiy maydoni esa 60 kvadrat metrni tashkil etadi. Bu g'orda g'aroyib hodisani kuzatish mumkin. Ya'ni saratonning chillasida g'or ichidagi harorat 5-6 daraja sovuq, qishda esa 20-22 daraja iliq bo'lib turarkan. Boysunliklar orasida Omonxona tarixi haqida turli rivoyatlar yuradi. Aytishlaricha, Sohibqiron Amir



Temurning lashkari shu vodiya kelganda holdan toyib qoladi. Buning ustiga askarlar birin-ketin kasallikka chalinadi. So'ngra ular Omonxona suvidan ichib, ana shu g'or salqinida tin olib, yana asl holiga kelgan. Rivoyatdan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, ushbu manzil qadimdan elu xalqning sihat-salomatligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Chanqovuz. Chanqovuz – Surxon vohasining qadimiy va an'anaviy musiqa asbobi. U miloddan avvalgi I asrda paydo bo'lgan. Unda ajdodlarimiz, xususan, momolarimiz betakror kuylar yaratgan. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlarida ham ko'plab mohir ijrochilar bor. Azaldan chanqovuzni ko'p ayollar nag'ma qilib kelishgan. Suhbat-gurunglarda ham jo'rlikda jonlantirishgan. Go'yoki chanqovuz qadim momolarimiz, cho'pon cho'liqlarimiz, bobo dehqonlarimiz bilan birga mehnatda bo'lgan. Yurtimizda ayni paytgacha chanqovuzning ikki turi bo'lgan. Suyakdan chanqovuz yasashda asosan echki suyagidan foydalanishgan. Hozirgi kunda chanqovuzlar asosan temirdan yasalmogda. Bundan tashqari, Surxon vohasida an'anaviy musiqa cholg'ularidan sivilg'a, g'ajir nay, chanqovuz, baxshilarga jo'r bo'lgan do'mbira, qo'biz keng tarqalgan.

Termiz arxeologiya muzeyi. Termiz arxeologiya muzeyi O'rta Osiyodagi yagona

arxeologiyaga ixtisoslashtirilgan muzey hisoblanadi. Muzey 8 mingga yaqin eksponat bilan faoliyat boshlagan. Ayni paytda bu yerda Vatanimizning miloddan avvalgi yuz ming yillik o'tmishidan boshlab bugungi kunga qadar bo'lgan hayoti keng yoritilgan 80 mingdan ortiq noyob topilma va osori-atiqalar saqlanmogda. Muzey fondi yildan-yilga turli davrlarga oid yangi topilmalar bilan boyib bormogda.

Al-Hakim at-Termiziy ziyoratgohi. Al-Hakim At-Termiziy madrasasi Termizdagi qadimiy me'moriy majmuadir. Unda Hakim at-Termiziy maqbarasi dastlab XI asr oxirida boshlanib, 1091-1095 yillarda Qoraxoniylar sultoni Ahmad ibn Hizrning ko'rsatmasiga muvofiq, at-Termiziy qabri ustida qurilgan. Majmua so'nggi yillarida mukammal qayta ta'mirlandi. Bugungi kunda ko'plab sayyohlar tomonidan ziyorat qilinadigan joyga aylangan. Al-Hakim at-Termiziy tasavvufning «Hakimiya» maktabi asoschisi sanaladi. Taxminlarga ko'ra, buyuk mutasavvif olim o'zining uzoq hayoti davomida (ba'zi manbalarga ko'ra 120 yil umr ko'rgan) 400 dan ortiq qimmatli asarlar qoldirgan, lekin bizgacha ularning 60 ga yaqini yetib kelgan xolos. Ushbu qo'lyozmalar hozirgi kunda Parij, Qohira, Damashq, London, Iskandariya va Istanbul kutubxonalarida saqlanib, o'rganilib kelinmogda.